

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4 (2)

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	16
PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	25
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz Maxmudovich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	30
Atamurodov Saidmurad Yaxyoyevich, Sindarova Aziza Musurmon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	42
Xasanov Sardor Xazratkulovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	50
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	55
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	60
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	65
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	70
Xamidova Zarifa Urol qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	74
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG'ALLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI.....	77
Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	84
Dadajonova Madina Ravshan qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	89
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	94
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	100
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF BANKS' GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN.....	105
Maxmudov Rahimjon	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA YANADA OSHIRISH.....	109
Abduraxmonova Gulmira	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	114
Teshabayev Dilmurod Boxodir o'g'li	



FARG 'ONA VILOYATINING INNOVATSION RIVOJLANISHI.....	120
Tuychieva Odina Nabiyevena	
INDICATORS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE "GREEN" ECONOMY.....	131
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICH LARI.....	140
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	
KORPORATIV BOSHQARUVNING XALQARO TAJRIBASI VA UNING QIYOSIY TAHLILI.....	144
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	149
Xasanov Sardor Xazratkulovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	156
Odinayev Ravzatullo Asatulloevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
Karimov Alibek Valievich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA FRANCHAYZING TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PLATFORMA MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	167
Xodjaye Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li	
"O'ZBEKISTON GTL" MAHSULOTLARINING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI VA ULARNI KOMPOUDIRLASH ASOSIDA EKOLOGIK TOZA YOQILG'ILAR OLIISH ISTIQBOLLARI.....	173
Ro'ziyev Aliakbar, Hayitov Ruslan, Mavlonov Shohrux	
HUDUDIY MEHNAT BANDLIGINI TA'MINLASHDA AVTOSERVIS KORXONALARINING ROLI.....	179
Marqayev Xurshid Aliqulovich	
ASOSIY VOSITALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	183
Zaripova Sayohat Zafarovna	
XIZMATLAR SOHASINI BOSHQARISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR: AGROTURIZM VA RAQAMLI XIZMATLAR ASOSIDA TAHLIL (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA).....	188
Oktamjonova Gulira'no Ikromjon qizi	
BUXORO VILOYATI UY XO'JALIKLARI HAYOT SIFATI VA IJTIMOIIY-IQTISODIY AHVOLI: SO'ROVNOMA NATIJALARI TAHLILI.....	192
Nizomov Asliddin, Musulmonova Shahlo, Izzatullayeva Ma'mura	
DIRECTIONS FOR TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES..	199
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich	
QORA METALLURGIYA SANOATI VA ULARNING ISHLATILISHI.....	203
Sarimsakov Alisher Ubaydullaevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	209
Yusupov Farhod Adamboyevich	
TASVIRLARDAN YO'L BELGILARINI TANIB OLIISH ALGORITMLARI VA DASTURIY VOSITASINI ISHLAB CHIQISH.....	214
Toyirov Akbar Xasanovich, Yuldoshov Abdurahmon Baxtiyorovich	
OLIIY TA'LIMNI MOLIVALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBASI: SINGAPUR MISOLIDA.....	218
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich	



MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN TURIZM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI.....	222
Ashurova Shaxnoza Almasovna	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA BYUDJET MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI ICHKI AUDITNING ANALITIK KO'RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH.....	226
Meliboyev Askar Eshmuratovich	
ГЛИНИСТЫЕ СЛАНЦЫ ЦЕНТРАЛЬНОГО И ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА КАК СЫРЬЕВАЯ СМЕСЬ ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ПОРТЛАНДЦЕМЕНТА.....	231
Карабаев А.М., Абдуллаева Д.Ф., Абдуллаев У.Х. Андакулова Н.Н.	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА НА ПРОМЫШЛЕННОМ ПРЕДПРИЯТИИ.....	237
Садиков Жaxonгир Носирджанович, Даулетмуратова Дилбар Калмуқанмед кизи	
РАЗРАБОТКА МЕХАТРОННОГО МОДУЛЯ ДЛЯ ВЫРАВНИВАНИЯ ПОВЕРХНОСТИ МЕТАЛЛА ПОСЛЕ ЗАЛИВКИ.....	243
Мирджуроев Сарвар Алишер угли	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING TA'SIRI ..	246
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
AGROKLASTERLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI	250
O'rinboev Ulug'bek Otabekovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПОРИСТОЙ СТРУКТУРЫ И ВЛАГОПОГЛОЩАЮЩИХ СВОЙСТВ КОМПОЗИТНОГО ВЯЖУЩЕГО	259
Тургунбаев Уринбек, Шарипова Дилафруз, Худойбердиев Жамшид	
ИССЛЕДОВАНИЕ НАПРЯЖЕННО-ДЕФОРМИРОВАННОГО СОСТОЯНИЯ ЯЧЕЙКИ СВЕТОПРОЗРАЧНОГО ОГРАЖДЕНИЯ ПРИ ВОЗДЕЙСТВИИ ЛОКАЛЬНОЙ СЕЙСМИЧЕСКОЙ НАГРУЗКИ.....	265
Давронов Олимбек, Туляганов Азиз	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARNING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	271
Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING TURIZMDA MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	276
Abdullayeva Zulfiya Izzatovna	
MINTAQAVIY SANOAT KORXONALARINING BIZNES JARAYONLARINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI (BPM, LEAN VA SIX SIGMA YONDASHUVLARI MISOLIDA) ..	279
Azimova Maxfuza Rashidovna	
QURILISH SANOATI KORXONALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNI EKOLOGIK BOSHQARISH TAMOIYILLARI	284
Xolov Xamza Tojiddinovich	
O'ZBEKISTONDA AHOLINI QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASHNING IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: EKONOMETRIK TAHLIL VA PROGNOZLASH	292
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich, Ibragimova Nodira Kadamovna	
A THEORETICAL MODEL LINKING GENDER EQUALITY AND MANAGEMENT EFFICIENCY.....	297
Ochilova Intizor Sadikovna	
QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELIDAN KUTILAYOTGAN DAROMADGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK MODEL ORQALI BAHOLASH.....	303
Sindarov Fazliddin Kaxramonovich	
MAMLAKAT KIMYO SANOATIDAGI KORXONALAR FAOLIYATIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH JARAYONI VA ULARNING TAHLILI.....	312
Odilova Malika Abdushukur qizi	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQRISH SANOATIGA JORIY ETISH	317
Abdivoyitova Sarvinoz Abduxayit qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV HISOB TIZIMINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	321
Xojiboyev Muxiddin Shodimuxamedovich	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	326
Dagarov Bekzod Muzaffar o'g'li	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA TENDENSIYALARI.....	332
Qulmetov Mansurbek Ro'zmatovich	
USING ENGINEERING MODELS TO MEASURE SME RISKS IN UZBEKISTAN.....	340
Djumabayeva Dilobar Asatillayevna	
BANK FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ASOSIY MASALALARI.....	347
Yusufov Javohirtshoh Ozod o'g'li, Xolmirzayev Elbek Baxtiyorovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR JARAYONIDA TALABALARNING IJODKORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	353
Meyliyeva Shoxista Rustamovna	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	358
Усманова Азиза Баходировна	
O'ZBEKISTONDA ELEKTR YORITISH MAHSULOTLARI BOZORINI INNOVATSION LOKALIZATSIYA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: DINAMIKA, TAHLIL VA PROGNOZ	363
Jurayev Murotjon Sotivoldiyevich	
HUUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH VA REYTINGLASH.....	371
Kosimov Bobir Abdigafarovich	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLUATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH.....	376
Amirov Shavkat Rahmatullayevich	
ОСНОВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТРАНСПОРТНОЙ ЛОГИСТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	383
Мурадов Алишер Курбанбаевич	
ФОРМИРОВАНИЕ БИЗНЕС-ПАРАДИГМЫ АГРОТУРИЗМА КАК УСЛОВИЕ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	390
Усманова Диляфруз Каршиевна	
WAYS TO IMPROVE THE REGIONAL STRUCTURE OF THE INDUSTRY OF NAVAI REGION	396
Uralov Eliboy Omonovich	
JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULK SOLIG'INI TAKOMILLASHTIRISHDA SAMARALI XORIJIY TAJRIBA	400
Safarova Shahzoda	
НАЛОГОВОЕ СТИМУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПРАКТИКА УЗБЕКИСТАНА.....	405
Рафиева Зарина Хусановна	
INDUSTRY 4.0 SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHNING ILMIY-AMALIY MASALALARI.....	410
Djuraeva Guzal Shavkatovna	



SUG'URTA TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	414
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
TIJORAT BANKLARIDA AKTIVLAR SIFATINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	418
Ruziyev Baxtiyor Salimboyevich	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СЛОВАРЯ И ЛИДЕРСКИХ КАЧЕСТВ У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.....	425
Рихсибоева Нигора Низомиддин кизи, Тоймухамедова Дилобар Хуснитдиновна	
TURIZM KORXONALARIDA INTEGRATSIYALASHGAN MARKETING KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI.....	434
Sobirjonov Asrorbek Sobitjon o'g'li	
KAM SUV TALABCHAN SEMENT OLISH UCHUN RATSIONAL TARKIBNI TADQIQ QILISH.....	440
X.V. Yusupov, Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li	
ENHANCING THE EFFICIENCY OF ISLAMIC FINANCING MECHANISMS IN EMERGING ECONOMIES: EVIDENCE FROM MURABAHA-BASED INSTRUMENTS AND PUBLIC-PRIVATE INVESTMENT MODELS.....	445
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH OMILLARI.....	453
Ibragimov Husen Ismailovich	
STUDIES ON OBTAINING AZOSUPERPHOSPHATE BY TREATING HIGH-CARBONATE, LOW-GRADE CENTRAL KYZYLKUM PHOSPHORITES WITH VARIOUS DOSAGES OF AMMONIUM SULFATE AND SULFURIC ACID.....	457
Saidov Hakimboy O'rinboyevich	
HUDUDIY SANOAT ISHLAB CHIQARISHNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	463
Avliyaqulov Xudoyberdi, Ollokulova Feruza Mansurovna	
NAVOIY VILOYATI SANOATI RIVOJLANISHINI BANDLIK VA INVESTITSIYA OQIMLARI ASOSIDA MODELLASHTIRISH.....	466
Baqoyev Husan Nuriddinovich	
TURIZM KORXONALARIDA INTEGRATSIYALASHGAN MARKETING KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI.....	474
Sobirjonov Asrorbek Sobitjon o'g'li	
YER VA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI VA INTEGRAL KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	480
Rustamov Umidjon Xayitboyevich	
AGROKLASTERLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI.....	485
O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich	
TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMLARIDA XARAJATLARNI KAMAYTIRISH VA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YO'LLARI.....	494
Olimov Maqsudjon Komiljon o'g'li, Saydullayeva Dilnoza Komil qizi	
BENTONIT YORDAMIDA ISHLATILGAN TURBINA MOYLARINI TOZALASH ASOSIDA BAZAVIY MOY OLISH IMKONIYATLARI.....	502
Salomatov Behruz To'ymurodovich, Panoyev Nodir Shavkatovich, Safarov Jasur Alijon o'g'li	
INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARIDA QAROR QABUL QILISH VA KOMMUNIKATSIYA SAMARADORLIGI.....	506
Sotvoldiyeva Xurliqo G'ayratjon qizi	



CHEMICAL-MINERALOGICAL CHARACTERIZATION AND DRY BENEFICIATION TECHNOLOGY OF FELDSPAR FROM THE SULTAN UVAYS DEPOSIT	512
Buranova Dinara Baxtiyarovna	
TRANSPORT LOGISTIKASIDA AVTOMOBIL TRANSPORTI ORQALI YUK TASHISH JARAYONIDAGI TAVAKKALCHILIKLARNI SUG'URTALASHNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	520
Jabborov Islom Xusan o'g'li	
MAGNIT O'ZAGI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORLARDA MEXANIK ZO'RIQISH VA ISROFLARNI KAMAYTIRISH HAMDA TEXNIK-IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MAQSADIDA ELLIPS KESIMNING OPTIMAL PARAMETRLARINI TANLASH.....	524
Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna	
ОТ ДЕКЛАРАЦИЙ К ДЕЙСТВИЮ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ БАРЬЕРЫ РЕАЛИЗАЦИИ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	531
Салахутдинова Юлдуз Голибовна	
ISSIQLIK ELEKTR STANSIYALARI ISHINI SUN'IY INTELLEKT ORQALI BASHORAT QILISH VA YAXSHILASH.....	536
Axmadjonov Ixtiyorjon Rovshanjon o'g'li, Umurzakova Dilnoza Maxamadjanovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI QAYTARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH: RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTON UCHUN RISKGA ASOSLANGAN MODEL	542
Tuxliyev Bozor Karimovich, Dusiyarov Sherzod Xolmuratovich	
O'ZBEKISTONDA AGROFOTOVOLTAIKA: ILMIY-AMALIY RIVOJLANISH, PILOT LOYIHALAR VALIDATSIYASI VA ME'YORIY-HUQUQIY ISTIQBOLLAR	552
Shog'o'chqorov Sanjar Qodir o'g'li	
MINTAQAVIY INFRATUZILMANING IJTIMOIIY TABAQALASHUVGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	563
Babjanova Dilfuza Abdurasulovna	
SANOAT KORXONALARIDA KLASTERLASHUV JARAYONLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI PLATFORMALARNING AHAMIYATI	568
Xusanova Malohat Mingnorovna	
ПРИМЕНЕНИЕ АЛГОРИТМИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ФИНАНСОВОМ УЧЁТЕ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ЗАТРАТ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ НЕФТЕГАЗОПЕРЕРАБОТКИ.....	574
Икрамова Хилола Ровшан кизи	
SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH.....	583
Nurova Farog'at Salohiddin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA XARAJATLAR SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA AUTSORSING VA AUTSTAFFINGDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	590
Fayzullayev Nurulla Baxromovich	

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA XARAJATLAR SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA AUTSORSING VA AUTSTAFFINGDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Fayzullayev Nurulla Baxromovich

Urganch RANCH texnologiya universiteti dotsenti, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik biznes subyektlarida xarajatlar samaradorligini ta'minlashda autsorsing va autstaffingdan foydalanishning iqtisodiy, tashkiliy hamda huquqiy afzalliklari tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi — tashqi resurslardan foydalanish instrumentlarining kichik biznes xarajatlariga, boshqaruv moslashuvchanligiga va mehnatni tashkil etish samaradorligiga ta'sirini baholash, shuningdek, autsorsing va autstaffingdan foydalanmaydigan kichik biznes subyektlari bilan qiyosiy tahlil asosida amaliy xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xarajatlar samaradorligi, autsorsing, autstaffing, mehnatni tashkil etish, moslashuvchan bandlik.

Аннотация. В данной статье исследуются экономические, организационные и правовые преимущества использования аутсорсинга и аутстаффинга для обеспечения эффективности затрат субъектов малого бизнеса. Цель исследования заключается в оценке влияния инструментов привлечения внешних ресурсов на издержки малого бизнеса, гибкость управления и эффективность организации труда, а также в разработке практических выводов на основе сравнительного анализа с субъектами малого бизнеса, не использующими аутсорсинг и аутстаффинг.

Ключевые слова: малый бизнес, эффективность затрат, аутсорсинг, аутстаффинг, организация труда, гибкая занятость.

Abstract. This article examines the economic, organizational, and legal advantages of using outsourcing and outstaffing to ensure cost efficiency in small business entities. The purpose of the study is to assess the impact of external resource utilization instruments on small business costs, managerial flexibility, and the efficiency of labor organization, as well as to develop practical conclusions based on a comparative analysis with small business entities that do not use outsourcing and outstaffing.

Keywords: small business, cost efficiency, outsourcing, outstaffing, labor organization, flexible employment.

KIRISH

Kichik biznesning raqobat muhitida barqaror faoliyat yuritishi ko'p jihatdan xarajatlar tarkibini samarali boshqarish, doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash hamda yordamchi funksiyalarni tashkil etishning iqtisodiy jihatdan maqbul modelini tanlashga bog'liq. Amaliyotda kichik biznes subyektlarining asosiy muammolaridan biri shundaki, ular korxonada o'sishining dastlabki va o'rta bosqichlarida buxgalteriya, IT qo'llab-quvvatlash, kadrlar hisobi, logistika, xavfsizlik, marketing va yuridik xizmatlarni to'liq ichki shtat hisobidan ta'minlashga majbur bo'ladi. Bu holat doimiy ish haqi fondining ortishiga, ish joylari, texnika, litsenziyalar, xodimlarni o'qitish va ularni almashtirish bilan bog'liq qo'shimcha tranzaksiyon xarajatlarning yuzaga kelishiga olib keladi.

O'zbekistonda kichik biznesning iqtisodiyotdagi roli izchil ortib bormoqda. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda kichik biznes subyektlarining YalMdagi ulushi 52,2 foizni tashkil etgan, xizmatlar hajmidagi ulushi esa 56,7 foizga yetgan. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, amaldagi kichik biznes subyektlari soni 1 201,6 mingtani tashkil etgan [1]. Ushbu ko'rsatkichlar kichik biznesni qo'llab-quvvatlash nafaqat moliyaviy yoki soliq imtiyozlari orqali, balki ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini yanada moslashuvchan tashkil etish orqali ham amalga oshirilishi zarurligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda autsorsing va autstaffing ushbu vazifani hal etishda muhim instrument sifatida qaralmoqda.



Biroq mazkur instrumentlarning iqtisodiy samaradorligi barcha holatlarda bir xil namoyon bo'lmaydi: ayrim funksiyalar bo'yicha tashqi model xarajatlarni kamaytirsa, boshqa funksiyalar doirasida nazoratning susayishi yoki xizmat sifati bilan bog'liq yo'qotishlar kuzatilishi mumkin. Shu sababli, ushbu maqolada outsorsing va autstaffingning nazariy asoslari, huquqiy muhiti hamda amaliy afzalliklari tahlil qilinadi, shuningdek, ulardan foydalanuvchi va foydalanmaydigan kichik biznes subyektlari o'rtasida qiyosiy tahlil amalga oshiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Autsorsing bo'yicha ilmiy adabiyotlarda asosiy yondashuv shundan iboratki, korxonada o'zining asosiy kompetensiyalariga e'tiborni kuchaytirish maqsadida yordamchi yoki standartlashtirilgan funksiyalarni tashqi ixtisoslashgan provayderlarga topshirishi mumkin. Murphy va boshqalar [2] kichik firmalarda tashqi resurslarga tayanish tadbirkorlikning tabiiy xususiyati ekanini ta'kidlab, bunday qarorlarni qabul qilishda resurslarning cheklanganligi hamda shartnoma boshqaruvining murakkabligi muhim omil bo'lib qolishini qayd etadi. Abdul-Halim, Ahmad va Ramayah [3] esa kichik va o'rta biznesda outsorsingga moyillik asosan xarajatlarni qisqartirish, asosiy faoliyatga e'tiborni kuchaytirish hamda tashqi ekspertizadan foydalanish bilan bog'liqligini asoslaydi.

Lahiri va boshqalar [4] tomonidan o'tkazilgan meta-tahlil outsorsing samaradorligi kontekstga bog'liq ekanini ko'rsatadi. Xususan, asosiy va yordamchi faoliyatlar, ichki va tashqi provayderlar, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjud. Awe, Kulangara va Henderson [5] 24 ta empirik tadqiqotni umumlashtirgan holda outsorsing bilan firma natijalari o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini aniqlagan, biroq ushbu bog'liqlik xizmat turi, boshqaruv sifati hamda provayderni tanlash mezonlariga yuqori darajada bog'liq ekanini ta'kidlaydi.

Chang va boshqalar [6] IT/IS outsorsingi bo'yicha tadqiqotida kichik va o'rta biznes subyektlari uchun to'g'ri provayderni tanlash xarajatlarni kamaytirish va xavflarni minimallashtirishning muhim sharti ekanini ko'rsatadi. Mageto [7] logistika outsorsingi bo'yicha olib borgan tadqiqotida ishlab chiqaruvchi kichik biznes subyektlari outsorsingdan asosan yuqori logistika xarajatlarini kamaytirish hamda cheklangan ichki resurslarni to'ldirish maqsadida foydalanishini qayd etadi. Demak, ilmiy adabiyotlar outsorsingni umumiy "iqtisodiy jihatdan foydali" vosita sifatida emas, balki funktsiya turi, bozor sharoiti, shartnoma sifati va nazorat mexanizmlariga bog'liq boshqaruv qarori sifatida talqin qiladi.

Autstaffing bo'yicha ilmiy adabiyotlar nisbatan kamroq bo'lsa-da, xalqaro va milliy amaliyotda u mehnat resurslarini vaqtinchalik jalb qilish, pik yuklamalarni qoplash, rekrutning hamda kadrlar hujjatlarini yuritish bilan bog'liq tranzaksiya xarajatlarni kamaytirish mexanizmi sifatida qaraladi. O'zbekiston uchun ushbu yo'nalish ayniqsa yangi hisoblanadi, chunki 2024-yil oktyabr oyida Vazirlar Mahkamasining 706-son qarori bilan autstaffing xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlangan. Mazkur nizomda autstaffing xizmatining huquqiy ta'rifi, shartnoma shartlari, yuborilgan xodimlar bilan mehnat munosabatlarini tartibga solish, shuningdek, ularning mehnat sharoitlari qabul qiluvchi tashkilotdagi o'xshash vazifalarni bajaruvchi xodimlar sharoitidan past bo'lmasligi kabi talablar mustahkamlangan [8].

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda bir qator xavf omillari ham qayd etiladi. Jumladan, ma'lumotlar maxfiylikning buzilishi, provayderga ortiqcha qaramlik, yashirin shartnoma xarajatlari, xizmat sifati ustidan nazoratning susayishi hamda ichki bilimlarning tashqi muhitga chiqib ketishi kabi holatlar muhim risklar sifatida ko'rsatiladi. Shu sababli ilmiy nuqtayi nazardan kichik biznes uchun eng maqbul yondashuv outsorsing yoki autstaffingni mutlaq ustun mexanizm sifatida emas, balki funksional va institutsional moslashuv asosida tanlanadigan aralash boshqaruv modeli sifatida ko'rib chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda bir-birini to'ldiruvchi to'rtta usuldan foydalanildi. Birinchidan, outsorsing va autstaffingning iqtisodiy mazmunini aniqlash maqsadida qiyosiy-tahliliy usul qo'llanildi. Ikkinchidan, O'zbekistonda kichik biznesning rolini baholash uchun rasmiy statistika ma'lumotlari tahlil qilindi. Uchinchidan, autstaffingning huquqiy chegaralari hamda mehnat munosabatlaridagi o'rnini baholash maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar asosida kontent-tahlil amalga oshirildi. To'rtinchidan, outsorsing va autstaffingdan foydalanuvchi hamda foydalanmaydigan kichik biznes subyektlari xarajatlarini taqqoslash maqsadida namunaviy ssenariy asosida hisob-kitoblarni ishlab chiqildi.

Ssenariyli tahlilda xizmat ko'rsatish va savdo segmentida faoliyat yurituvchi namunaviy kichik biznes subyekti shartli obyekt sifatida qabul qilindi. Mazkur modelda 25 nafar asosiy xodimga qo'shimcha ravishda buxgalteriya, kadrlar hisobi va IT qo'llab-quvvatlash kabi yordamchi funksiyalar, shuningdek, mavsumiy talab oshgan davrlarda qo'shimcha ishchi kuchiga ehtiyoj mavjud deb qaraldi. Hisob-kitoblarda 2025-yil uchun O'zbekistondagi o'rtacha oylik ish haqi hamda savdo sohasidagi o'rtacha oylik ish haqi bo'yicha rasmiy

statistika ko'rsatkichlari asos sifatida qabul qilindi [9].

Mualliflik ssenariy modelida ichki shtat doirasida bajariladigan yordamchi funksiyalar uchun to'liq yuklangan xarajat koeffitsiyenti 1,25 darajasida belgilandi. Mazkur koeffitsiyent ish haqiga qo'shimcha ravishda ish joyini tashkil etish, texnika va dasturiy ta'minot, xodimlarni o'qitish, mehnat ta'tili davrida ularni almashtirish hamda ma'muriy boshqaruv bilan bog'liq xarajatlarni o'z ichiga oladi. Outsorsing modelida yordamchi funksiyalar bo'yicha shartnoma qiymati ushbu to'liq yuklangan ichki xarajatlarning 70 foizi darajasida, mavsumiy ishchi kuchini autstaffing orqali jalb qilish xarajati esa ichki modelga nisbatan 93 foiz darajasida qabul qilindi. Ushbu koeffitsiyentlar rasmiy tariflar emas, balki ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan ixtisoslashuv samarasi, tranzaksion tejankorlik hamda rekruting yuklamasining qisqarishiga asoslangan tahliliy parametrlar sifatida shakllantirildi.

Tadqiqotning asosiy cheklovi shundaki, O'zbekistonning ochiq statistika manbalarida outsorsing va autstaffingdan foydalanuvchi kichik biznes subyektlarining ulushi, sohalar bo'yicha taqsimoti hamda shartnoma narxlariga to'g'risida muntazam agregatsiyalangan ma'lumotlar mavjud emas. Shu sababli mazkur maqoladagi qiyosiy tahlil empirik jihatdan to'liq reprezentativ kuzatuv sifatida emas, balki rasmiy statistika va ilmiy adabiyotlarga asoslangan ssenariy baholash natijasi sifatida talqin qilinishi lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yil 1-yanvar holatiga respublikamizda 1 201,6 mingta amaldagi kichik biznes subyekti faoliyat yuritgan bo'lib, har 1 000 aholiga to'g'ri keladigan ko'rsatkich 31,8 tani tashkil etgan. 2025-yil yakunlariga ko'ra esa kichik biznesning YalMdagi ulushi 52,2 foizga, xizmatlar hajmidagi ulushi esa 56,7 foizga yetgan [1]. Mazkur ko'rsatkichlar ayniqsa xizmatlar, savdo, logistika, qurilish va kichik ishlab chiqarish sohalarida yordamchi funksiyalarni optimal tashkil etish raqobatbardoshlikning muhim omiliga aylanganini ko'rsatadi.

Huquqiy nuqtayi nazardan, mehnatni moslashuvchan tashkil etish uchun O'zbekistonda bir qator institutlar shakllangan. Xususan, Mehnat kodeksida o'rindoshlik asosida ishlash, uy mehnati va masofaviy bandlik kabi shakllar belgilangan [10]. Bu esa kichik biznes subyektlariga ayrim vazifalarni to'liq shtat birligisiz amalga oshirish imkonini beradi. Biroq autstaffing instituti ilgari aniq huquqiy tartibga solinmagan edi. 2024-yil 25-oktyabrda qabul qilingan 706-son qaror¹ ushbu bo'shliqni qisman to'ldirdi [8].

Mazkur nizomga ko'ra, autstaffing xizmati — autstaffer tomonidan o'z xodimlarini ularning roziligi asosida boshqa yuridik shaxsga vaqtinchalik yuborish orqali ko'rsatiladigan xizmat turidir. Yuborilgan xodimlar bilan mehnat munosabatlari autstafferda saqlanib qoladi, qabul qiluvchi tashkilot esa mehnatni tashkil etish, hisobga olish hamda xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlashda ishtirok etadi. Shuningdek, yuborilgan xodimlarning ish haqi va mehnat sharoitlari qabul qiluvchi tashkilotdagi o'xshash vazifalarni bajarayotgan xodimlar sharoitidan past bo'lmasligi lozim. Autstaffing asosida yuborish muddati bir kalendar yil davomida to'qqiz oydan oshmasligi kerak, tegishli ma'lumotlar esa «Yagona milliy mehnat tizimi» axborot tizimiga kiritilishi shart [8]. Ushbu normalar autstaffingni ish haqini sun'iy pasaytirish yoki norasmiy bandlikni yashirish vositasi sifatida emas, balki tartibga solingan mehnat resurslarini boshqarish mexanizmi sifatida qo'llashga qaratilgan.

Shunday qilib, outsorsing va autstaffing O'zbekiston sharoitida nafaqat iqtisodiy maqbullik nuqtai nazaridan, balki huquqiy rasmiylashtirish va ijtimoiy tenglik tamoyillari bilan uyg'un holda ko'rib chiqilishi lozim. Mazkur yondashuv kichik biznes uchun xarajatlar samaradorligini ta'minlash masalasini oddiy "arzonlashtirish" emas, balki kompleks boshqaruv samaradorligini oshirish kontekstida tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval

Autstaffing va autstaffingdan foydalanuvchi hamda foydalanmaydigan kichik biznes subyektlarining qiyosiy xususiyatlari²

Mezon	Foydalanmaydigan KBS	Foydalanuvchi KBS	Tahliliy izoh
Xarajatlar tuzilmasi	Doimiy ish haqi fondi va ma'muriy xarajatlar ulushi yuqori	Doimiy xarajatlarning bir qismi shartnoma asosida o'zgaruvchan xarajatlarga aylanadi	Yordamchi funksiyalar bo'yicha qat'iy xarajatlarni qisqartirish imkoniyati yuzaga keladi
Rekruting va almashtirish	Yollash, hujjatlashtirish va o'qitish to'liq ichki resurslar hisobidan amalga oshiriladi	Provayder orqali tanlash, hujjatlashtirish va tezkor almashtirish imkoniyati mavjud	Ayniqsa mavsumiy va loyiha yuklamalarida tranzaksion xarajatlar qisqaradi

1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2024-yil 25-oktyabr 706-son qarori. <https://www.lex.uz/docs/7172564>

2 Muallif ishlanmasi.



Talab o'zgarishiga moslashuv	Shtatni qisqartirish yoki kengaytirish jarayoni sekin va yuqori xarajatli	Ish hajmiga qarab shartnoma hajmini tez o'zgartirish mumkin	Moslashuvchanlik ortadi, ortiqcha shtatni saqlash zarurati kamayadi
Texnologik ekspertiza	Ichki xodimlar malakasiga bog'liq, cheklangan bo'lishi mumkin	Ixtisoslashgan provayder ekspertizasidan foydalanish imkoniyati mavjud	Buxgalteriya, IT, logistika va yuridik xizmatlarda sifat ustunligi yuzaga keladi
Nazorat va maxfiylik	Bevosita nazorat yuqori	Shartnoma va SLA orqali nazorat talab etiladi	To'g'ri shartnoma va KPI belgilanmasa, yashirin xarajatlar yoki ma'lumotlar xavfi ortadi
Huquqiy xavflar	Mehnat munosabatlari nisbatan aniq	Noto'g'ri rasmiylashtirilganda qayta kvalifikatsiya xavfi mavjud	Autstaffingda 2024-yilgi nizom talablariga rioya qilish muhim ahamiyatga ega

Qiyosiy tahlilni konkretlashtirish maqsadida xizmat ko'rsatish va savdo segmentida faoliyat yurituvchi ikkita kichik biznes subyekti misolida yordamchi funksiyalar bo'yicha xarajatlar hisoblab chiqildi. Bazaviy variantda korxonada buxgalteriya, kadrlar hisobi va IT qo'llab-quvvatlash funksiyalarini ichki shtat hisobidan tashkil etadi, mavsumiy talab ortgan davrda esa qo'shimcha xodimlarni mustaqil ravishda yollaydi. Qiyosiy variantda esa buxgalteriya, kadrlar hisobi funksiyasining bir qismi hamda IT qo'llab-quvvatlash outsorsing asosida, mavsumiy ishchi kuchi esa autstaffing asosida jalb etiladi.

2025-yil uchun rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6 376,7 ming so'mni, savdo sohasida esa 6 961,2 ming so'mni tashkil etgan [9]. Mazkur ko'rsatkichlardan kelib chiqib, 1 nafar buxgalter, 0,75 stavkada kadrlar/ma'muriy mutaxassis, 0,5 stavkada IT qo'llab-quvvatlash xodimi hamda 3 oy davomida 4 nafar mavsumiy xodim ehtiyoji hisob-kitobga kiritildi. Ichki model uchun to'liq yuklangan xarajat koeffitsiyenti 1,25 darajasida, aralash model uchun esa outsorsingda 0,70 va autstaffingda 0,93 koeffitsiyentlari qo'llanildi. Koordinatsiya va shartnoma nazoratini amalga oshirish uchun qo'shimcha ravishda 6,0 mln so'm miqdorida shartli boshqaruv xarajatlari hisobga olindi (2-jadval).

2-jadval

Kichik biznes subyektlarida yordamchi funksiyalar bo'yicha qiyosiy ssenariy hisob-kitobi


Ko'rsatkich	Foydalanmaydigan model, mln so'm	Aralash model, mln so'm	Farq, ± mln so'm
Buxgalteriya, kadrlar va IT bo'yicha to'liq yuklangan ichki xarajatlar	215,2	—	—
Buxgalteriya, kadrlar va IT bo'yicha outsorsing shartnomasi	—	150,6	-64,6
Mavsumiy ishchi kuchi bo'yicha to'liq yuklangan ichki xarajatlar	104,4	—	—
Mavsumiy ishchi kuchi bo'yicha autstaffing xarajatlari	—	97,1	-7,3
Koordinatsiya va shartnoma monitoringi xarajatlari	—	6,0	+6,0
Jami yillik xarajat	319,6	253,8	-65,9
Tejamkorlik darajasi, %	—	20,6	—

Izoh:

Hisob-kitoblar 2025-yil uchun rasmiy o'rtacha ish haqi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan amalga oshirildi.

1,25; 0,70 va 0,93 koeffitsiyentlari bozordagi aniq tariflar emas, balki ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ixtisoslashuv va tranzaksion tejamkorlik ta'sirlariga asoslangan ssenariy parametrlaridir.

Mazkur jadval empirik buxgalteriya hisoboti emas, balki qaror qabul qilish uchun mo'ljallangan tahliliy namuna hisoblanadi.



1-rasm. Shartli olingan kichik biznes subyektlarida yordamchi funksiyalar bo'yicha yillik xarajatlarning qiyosiy ssenariy tahlili³

Qiyosiy ssenariy tahlili shuni ko'rsatdiki, autsorsing va autstaffingdan foydalanishning asosiy iqtisodiy afzalligi yordamchi funksiyalar bo'yicha doimiy xarajatlarni o'zgaruvchan yoki shartnoma asosida boshqariladigan xarajatlarga aylantirishdan iborat. Bu, ayniqsa, ish hajmi o'rtacha bo'lgan va talab mavsumiy o'zgaruvchan xususiyatga ega kichik biznes subyektlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Autsorsing ichki shtatda to'liq saqlash iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lmagan, biroq muntazam talab etiladigan funksiyalar — buxgalteriya, ish haqini hisoblash, IT-servis, huquqiy kuzatuv, ayrim marketing va logistika operatsiyalarida eng yuqori samarani ta'minlaydi.

Autstaffingning afzalligi esa bevosita ish haqi xarajatlarini kamaytirishda emas, balki ishchi kuchini tezkor jalb qilish, ma'muriy yukni qisqartirish hamda talab pasaygan davrda ortiqcha shtatni saqlash zaruriyatini bartaraf etishda namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, autstaffingni mavsumiy savdo, ombor xo'jaligi, logistika, call-markazlar, tadbirlar servislari, qisqa muddatli loyihalar va ish hajmi tez o'zgaruvchi segmentlarda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Biroq uning huquqiy me'yorlari qat'iy belgilangan: yuborilgan xodimlar bilan mehnat munosabatlari autstafferda saqlanadi, ish haqi va mehnat sharoitlari qabul qiluvchi tashkilotdagi o'xshash vazifalarni bajarayotgan xodimlar sharoitidan past bo'lmashligi lozim, mehnatga oid ma'lumotlar davlat axborot tizimiga kiritilishi shart hamda yuborish muddati odatda bir kalendar yil davomida to'qqiz oydan oshmasligi kerak [8].

Tahlil natijalari shuni ham ko'rsatadiki, autsorsing va autstaffing barcha funksiyalar uchun bir xil darajada samarali emas. Korxonaning strategik nou-xausi, tijorat sirlari, mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlar yoki yuqori darajadagi ichki koordinatsiyani talab qiladigan funksiyalar to'liq tashqi modelga o'tkazilganda nazorat xarajatlari ortishi va sifat bilan bog'liq xavflar kuchayishi mumkin. Shu sababli kichik biznes subyektlarida vazifalarni "yadro" va "qo'llab-quvvatlovchi" segmentlarga ajratish muhim ahamiyatga ega. Autsorsing va autstaffing, asosan, ikkinchi segment uchun iqtisodiy jihatdan asoslangan mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Ilmiy nuqtai nazardan, tadqiqot natijalari autsorsing va autstaffing samaradorligi quyidagi uchta shart bajarilganda yuqori darajada namoyon bo'lishini ko'rsatadi: birinchidan, funksiya standartlashtirilgan va o'lchanadigan bo'lishi; ikkinchidan, shartnoma orqali natijalar va javobgarlik aniq belgilanishi; uchinchidan, korxonada provayder faoliyatini boshqarish hamda natijalarni monitoring qilish imkoniyati mavjud bo'lishi. Mazkur shartlar bajarilmagan taqdirda tashqi model yashirin tranzaksiyon xarajatlarning ortishiga olib kelishi mumkin.

Amaliy nuqtayi nazardan, asosiy xulosa shundan iboratki, kichik biznes subyektlari xarajatlarni qisqartirishni

3 2-jadval asosida muallif ishlanmasi.



faqat ish haqi fondini kamaytirish orqali emas, balki funksiyalarni optimal qayta taqsimlash orqali amalga oshirishi lozim. Bu esa “kichik shtat — yuqori samaradorlik” yondashuvidan ko‘ra, “yadroviy funksiyalar — ichki nazoratda, yordamchi funksiyalar — bozor mexanizmlari asosida” tamoyiliga tayanuvchi boshqaruv modelini shakllantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, outsorsing va autstaffing kichik biznes subyektlarida xarajatlar samaradorligini ta‘minlashning muhim vositalari hisoblanadi. Ularning afzalligi, eng avvalo, yordamchi funksiyalar bo‘yicha doimiy xarajatlarni qisqartirish, rekruting va ma‘muriy yukni kamaytirish, talab o‘zgarishiga tez moslashish hamda ixtisoslashgan tashqi ekspertizadan foydalanish imkoniyatini yaratishi bilan izohlanadi. Qiyosiy ssenariy tahlili shuni ko‘rsatadiki, outsorsing va autstaffingdan foydalanmaydigan namunaviy kichik biznes subyektiga nisbatan aralash model yordamchi funksiyalar bo‘yicha yillik xarajatlarni taxminan 20,6 foizga kamaytirish imkonini beradi. Biroq ushbu natija avtomatik tarzda yuzaga kelmaydi: shartnoma boshqaruvi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lsa, provayderni tanlash noto‘g‘ri amalga oshirilsa yoki tashqi ijroga berilgan funksiya strategik ahamiyat kasb etsa, xarajatlarni tejash kutilgan darajada namoyon bo‘lmashligi mumkin. O‘zbekiston sharoitida autstaffingning huquqiy asoslari 2024-yilda shakllantirilgani ushbu mexanizmdan foydalanishning institutsional aniqqligini oshirdi. Bu holat kichik biznes subyektlari uchun mehnat resurslarini jalb qilishda qonuniylik, shaffoflik va mehnat huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, outsorsing va autstaffing bozorida sifat standartlarini belgilash, shartnoma namunalarini ishlab chiqish, provayderlar reyting tizimini shakllantirish hamda sohaviy metodik tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Tadqiqot natijalari asosida kichik biznes subyektlari uchun funksiyalarni yadroviy va yordamchi segmentlarga ajratish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish, buxgalteriya, IT, logistika, HR-servis va yuridik xizmatlar bo‘yicha outsorsing provayderlarini baholash mezonlarini joriy etish, autstaffing shartnomalari uchun tipik shartlar, KPI tizimi va risk-kartalarni ishlab chiqish, provayderlar bilan ishlash madaniyati hamda shartnoma menejmenti bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv dasturlarini tashkil etish, shuningdek, sohaviy kesimda outsorsing va autstaffingning iqtisodiy samaradorligi bo‘yicha empirik statistik kuzatuvlarni yo‘lga qo‘yish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[1] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). *O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari (2025-yil yanvar–dekabr)*. URL: https://stat.uz/img/kb_ru_p11674.pdf (murojaat sanasi: 09.04.2026).

[2] Murphy, P.J., Wu, Z., Welsch, H., Heiser, D.R., Young, S.T., & Jiang, B. (2012). Small firm entrepreneurial outsourcing: Traditional problems, nontraditional solutions. *Strategic Outsourcing: An International Journal*, 5(3), 248–275. <https://doi.org/10.1108/17538291211291774>

[3] Abdul-Halim, H., Ahmad, N.H., & Ramayah, T. (2012). Unveiling the motivation to outsource among SMEs. *Business Strategy Series*, 13(4), 181–186. <https://doi.org/10.1108/17515631211246258>

[4] Lahiri, S., Karna, A., Kalubandi, S.C., & Edacherian, S. (2022). Performance implications of outsourcing: A meta-analysis. *Journal of Business Research*, 139, 1303–1316. <https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2021.10.061>

[5] Awe, O.A., Kulangara, N., & Henderson, D.F. (2018). Outsourcing and firm performance: A meta-analysis. *Journal of Strategy and Management*, 11(3), 371–386. <https://doi.org/10.1108/JSMA-03-2017-0019>

[6] Chang, S.-I., Yen, D.C., Ng, C.S.P., & Chang, W.-T. (2012). An analysis of IT/IS outsourcing provider selection for small- and medium-sized enterprises in Taiwan. *Information & Management*, 49(5), 199–209. <https://doi.org/10.1016/j.im.2012.03.001>

[7] Mageto, J.N. (2018). The extent of logistics outsourcing among small and medium-sized manufacturing enterprises in Nairobi. *Journal of Transport and Supply Chain Management*, 12, a346. URL: <https://jtscm.co.za/index.php/jtscm/article/view/346> (murojaat sanasi: 09.04.2026).

[8] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2024). *2024-yil 25-oktyabrdagi 706-son qaror: Autstaffing xizmatlarini ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida*. URL: <https://lex.uz/uz/docs/7172564> (murojaat sanasi: 09.04.2026).

[9] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). *O‘zbekiston Respublikasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2025-yil yanvar–dekabr)*. URL: https://stat.uz/img/news/ish-haqi--ru-21_01_p95247.pdf (murojaat sanasi: 09.04.2026).

[10] O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. (2022, amaldagi tahrir). *O‘rindoshlik, uy mehnati va masofaviy bandlikka oid moddalar*. URL: <https://lex.uz/docs/6257291> (murojaat sanasi: 09.04.2026).

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100